

ABDURAHMON JOMIYNING MA'NAVİY MEROSIDA FALSAFIY QARASHLAR

Oyatulloh Ayniddin,

Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markaziy bo'lim boshlig'i,
Imom Termiziy o'rta maxsus islom ta'lim muassasasi o'qituvchisi

ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ В ДУХОВНОМ НАСЛЕДИИ АБДУРАХМАНА ДЖАМИ

Оятуллох Айниддин,

Начальник Международного научно-исследовательского
центра имени Имам Термизи, преподаватель среднего
специального исламского образовательного учреждения
имени Имам Термизи

PHILOSOPHICAL VIEWS IN THE SPIRITUAL HERITAGE OF ABDURAHMAN JAMI

Oyatulloh Ayniddin,

Head of the Imam Termizi International Scientific Research
Center, Lecturer at the Imam Termizi Secondary Special Islamic
Educational Institution



E-mail:

oyatulloh@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0002-8514-8284>

Annotatsiya: Ma'lumki, Abdurahmon Jomiy mashhur mutafakkir o'z davrida ham, bugungi kunda ham she'riyat olamida ulkan shaxsiyat sifatida e'tirof etib kelinmoqda. Bu kishining asarlari hech qachon dolzarbligini yo'qotmaydi. Shu o'rinda ta'kidlash lozim-ki, Jomiyning asarlari faqat til, adabiyot, she'riyat yo'nalishida emas, balki falsafa nazariyasi, go'zal axloq namunalari va ruhiy rivojlanish bosqichlari o'rtaqidagi bog'liqlikni ko'rsatgan. Ushbu maqola Abdurahmon Jomiyning ulkan ilmiy salohiyatini manbalarga asoslangan holda namoyon qilishga qaratiladi. Ma'lum bo'lishicha, mazkur allomaning asarlari o'z yurtida yozilgan bo'lib, o'sha paytdagi ko'p ulamolar e'tirof etganlar.

Kalit so'zlar: falsafa, tarix, riyozat, falakiyot, adabiyot, vahid, silsila, fazoil, axloq, aqliy, naqsh, mantiq, tasavvuf, "Haft avrang".

Аннотация. Хорошо известно, что Абд ар-Рахман Джамии является выдающимся мыслителем, который как в своё время, так и сегодня признаётся великим деятелем в мире поэзии. Его труды не теряют своей актуальности. Следует подчеркнуть, что произведения Джамии охватывают не только сферу языка, литературы и эпической поэзии, но и отражают взаимосвязь между философской теорией, образцовым нравственным поведением и этапами духовного совершенствования. Цель данной статьи – представить обширный научный потенциал Джамии на основе источников. Известно, что труды этого великого учёного были написаны на его родине и получили признание многих учёных его времени.

Ключевые слова: философия, история, аскетическая практика (риязат), астрономия, литература, единство, происхождение, добродетели, этика, разум, узор (наки), логика, суфизм, «Хафт авранг».

Abstract: It is well-known that Abd al-Rahman Jami is a celebrated thinker who, in his time and today, is recognised as a great figure in the world of poetry. His works never lose their relevance. It should be emphasised that Jami's works are not only in the domain of language, literature and epic poetry, but also show the interconnection between philosophical theory, exemplary moral conduct and the stages of spiritual development. This article is aimed at presenting Jami's vast scholarly potential on the basis of

sources. It is known that the works of this great scholar were written in his homeland and were acknowledged by many scholars of his time.

Key words: *philosophy, history, ascetic practice (riyāzat), astronomy, literature, unit, lineage, virtues, ethics, intellect, pattern (naqsh), logic, Sufism, “Haft Awrang”.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Abdurahmon Jomiyning to‘liq ismi – Nuriddin Abdurrahmon ibn Ahmad ibn Muhammad Jomiy bo‘lgan. U kishi Movarounnahrning Jom shahrida milodiy 1414-yil 7-noyabrda tavvallud topgan. Jomiyning otabobolari asli Dashtdan bo‘lib, keyinchalik Jom shahriga ko‘chib kelishgan. Necha yillar shu Jom shahrida yashab umrguzaronlik qilgan. Keyinchalik esa, Hirotga ko‘chib kelishgan. Jomiy yoshligida otasidan ilk ta‘limni, ya‘ni odob-axloqqa oid masalalarni o‘rgangan. Hirot shahrida maktab-madrasalarda tahsil olgan. O‘sha davrda Hirotidagi “Dilkash” madrasasiga kirib o‘z davrining taniqli til, adabiyot olimlari va mudarrisalari qo‘lida tahsil olgan. Shu davrdayoq u arab tilini mukammal o‘rgana boshlagan. Keyinroq Jomiy o‘z bilimini oshirish uchun Samarqandga keladi va Ulug‘bek madrasasida buyuk falakiyotshunos Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, fiqhshunos Fazlulloh Abullays kabilardan ta‘lim olgan. Bu yillar davomida u til va adabiyotgina emas, riyoziyot, falakiyot, falsafa, huquqshunoslik fanlari, din asoslari, hadis va tafsir ilmlarini chuqur o‘rgangan. Jomiy Hirotga qaytgach, hayoti davomida ilm-fanning turli sohalarida ijod qilgan — adabiyot, tasavvuf, falsafa, san‘at va musiqa va boshqa fanlar bilan shug‘ullangan. Tasavvuf yo‘liga kirishni, o‘z bilim va faoliyatini shu yo‘lga, qolaversa, ijodga, ilm-fanga bag‘ishlashni afzal ko‘radi [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ИНТЕПАТРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Jomiy asarlarining bir qismi diniy va falsafiy mazmunga ega bo‘lib, ularda shoir islom dini va sharq falsafasining bir qator masalalarini o‘z nuqtai nazari bo‘yicha talqin etadi. U kishi asarlari bugungi kunda ham o‘z dolzabligini yo‘qotmay kelmoqda. Markaziy Osiyo sharqshunos, tilshunos va manbashunoslari u kishining asarlarini ilmiy, madaniy tadqiqot predmeti sifatida katta qiziqish bilan o‘rganadi. Masalan, Bugungi kunga qadar yurtimizda alloma merosiga bag‘ishlangan bir qator xalqaro konferensiyalar o‘tkazilgan. Asarlari

falsafiy tasavvufiy yo‘nalishlarni o‘zida namoyon etadi [2].

Jomiyning falsafiy qarashlari asosan islom falsafasi va tasavvufiy ramzlar orqali ifodalangan. U Jaloliddin Rumiy va Fariduddin Attorning ta‘limot va g‘oyalaridan ko‘proq foydalangan. U Ibn Arabiyning “vahdat ul-vujud”, ya‘ni “Mavjudot yagona haqiqatning zohir bo‘lishidir” degan g‘oyasini chuqur o‘rgangan. Uning fikricha dunyodagi barcha narsa va mavjudotlar Allohning zohir bo‘lish shakllaridir.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Jomiy o‘z asarlarida komil inson g‘oyasini ilgari suradi. Uning falsafasi markazida inson va uning kamoloti turadi. Uning fikricha, insonda ikki jihat bor: bu moddiy va ma‘naviy jihatlaridir. Moddiy jihat insonning organizmi, hissiyotlari, undagi hayot, jism bilan tanishlik, dunyo bilan bog‘langanlik, ya‘ni insonning jamiyatdagi vazifasi, faoliyati va jismoniy ehtiyojlarini o‘z ichiga qamrab oladi. Ma‘naviy jihat esa insonning ilohiy tomondan berilgan ruhi, aqli, ma‘rifatga intilishi, irfoniy kamolot sari intiluvchanligi, ya‘ni nafsini tarbiyalash orqali ma‘rifiy, axloqiy kamolotga intilishidir [3].

Jomiyning nazarida, inson shunchaki jismoniy mavjudlik emas, balki ma‘naviy darajada ham barkamol bo‘lishi zarur. Masalan, «inson o‘zida so‘z va amal, ilm va axloqni birlashtirishi»ga e‘tibor beriladi. Bundan kelib chiqadiki, inson o‘zida bu ikki jihatni uyg‘unlashtirsa, ya‘ni jismoniy va ma‘naviy jihatlarda kamol topsa, u komil inson bo‘ladi. Jomiy bu g‘oyani o‘z falsafiy, tasavvufiy qarashlari doirasida ko‘rib chiqadi. Jomiy nazdida «Inson» tushunchasi ikki ma‘noga ega: birinchisi, yaratilgan mavjudotlar ichida eng mukammal mavjudot; ikkinchisi insoniyat ichida eng komil inson, ya‘ni, inson bashariyat ichidagi bir mavjudot bo‘lib, uning eng yuksak shakli komil inson idealidir. Jomiy uchun insonning jismoniy hayoti, jamiyatdagi faoliyati, material-dunyo bilan bog‘liqlik muhim bo‘lsa-da, undan ham muhimroq ruhiy va ma‘naviy kamolotga intilishdir [4].

Jomiyning falsafiy merosi Sharqda, ma'naviyat va islom tafakkurida muhim ahamiyat kasb etadi. U tasavvuf falsafasini badiiy so'z bilan xalqqa yaqinlashtirib, falsafani inson qalbi va ruhiyati bilan bog'ladi. Uning asarlaridagi falsafiy qarashlar inson kamoloti, ilohiy ishq, ma'rifat va vujud haqidagi chuqur mulohazalarni ifodalaydi. U falsafani nazariy bilim sifatida emas, balki ruhiy tarbiya va ma'naviy tarbiya vositasi sifatida ko'radi. Uning fikricha, falsafa insonni komillikka, Yaratuvchiga yaqinlashishga, olamning haqiqiy ma'nosini anglab yetishga chorlovchi ta'limot hisoblanadi. Jomiyning bunday qarashlari keyingi asrlardagi ko'plab mutafakkirlarning ijodiga ijobiy tasir ko'rsatgan [5].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Jomiyning "Haft avrang" asarida falsafiy qarashlari yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu asar tarkibiga kiruvchi dostonlar ro'yxati quyidagilardir:

Silsilat uz-zahab;
Tuhfat ul-ahror;
Subhat ul-abror;
Yusuf va Zulayho;
Layli va Majnun;
Salomon va Absol;
Xiradnomayi Iskandariy [3].

"Silsilat uz-zahab" asarida mo'tadil axloq va ma'rifat falsafasi, namunaviy hikmatlar keltirilgan. Bunda inson nafs ho'yu havas ta'siridan tozalanib, ma'naviy yuksalishga intilish zarurligi uqtirilgan. Alloma "Salomon va Absol" hamda "Yusuf va Zulayho" masnaviylarida "vahdat ul-vujud" masalasi, ya'ni borliqning yagona manbai Alloh ekanini ta'kidlaydi. Barcha mavjudot Allohning zohir bo'lishidir. Inson o'z "men"ligini yo'qotib, haqiqiy vujudni – Ilohiy vujudni anglashi lozim. Alloma "Layli va Majnun" hamda "Yusuf va Zulayho" asarlarida ilohiy ishq falsafasini bayon qilgan. Unga ko'ra ishq vujudning mohiyatidir. Ishq Allohni olamni yaratishga undagan ilohiy kuchdir. Inson ham ishq orqali haqiqiy kamolotga erishadi. "Suhbat ul-abror" asarida ham komil inson falsafasi yoritilgan. Bunga ko'ra inson borliqning eng yuksak namunasi. Komil inson Allohning sifatlarini o'z jonida mujassam etgan shaxsdir. Komil inson bo'lish uchun nafsni poklash, ilm va ishq orqali ma'rifatga intilish zarur. "Tuhfat ul-ahror" hamda "Suhbat ul-abror" asarlarida falsafaning ilmiy va amaliy

ahamiyati keltirilgan. Jomiy ilmni ilohiy haqiqatga yetkazuvchi yo'l deb biladi. Bu yerdagi ilmdan murod zohiriy ilm emas, balki botiniy ilmdir. Alloma dunyoviy va ruhiy hayot muvozanatini bayon qilib keltiradiki, inson dunyoviy hayotdan uzilgan holda emas, balki uni ma'naviy boylikni o'stirish maqsadida xizmat qildirgan holda yashashi kerak. Ya'ni, Jomiy moddiyat olamini inkor etmaydi, unga yopishib ham olmaydi, balki inson dunyodan foydalanib oxiragini obod qilishi kerak. "Suhbat ul-abror" asarida go'zal axloq va insoniy fazilatlar falsafasini inson kamoloti uchun asosiy shartlardan biri deb hisoblaydi. Shundan ma'lum bo'ladiki, Jomiyning "Haft avrang" asari – bu faqat do'stlik yoki ishq haqidagi doston emas, balki tasavvufiy-falsafiy ta'limotlar ensiklopediya hisoblanadi.

Unda quyidagi tushunchalar markaziy o'rin egallaydi:

Ishq – vujudning mohiyati;
Ilm – kamolotga yetaklovchi nur;
Axloq – insoniylikning o'zagi;
Ozodlik – nafsdan xalos bo'lish;
Xirad – davlat va hayotning asosi [4].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Abdurahmon Jomiyning ilmiy asarlari tarixan ko'proq xalq va jamiyat manfaatiga asos bo'lib xizmat qilgan. Alloma yoshlarni tarbiyalash, go'zal axloqqa yetaklash masalasiga katta e'tibor qaratgan. Bugungi hayotimizda ham uning falsafiy qarashlari tadqiqotchilar tomonidan katta qiziqish bilan o'rganib kelinmoqda. Asarlarini o'qigan kishi o'zida ma'rifiy va axloqiy jihatlar bilan bir qatorda, do'stlik, muhabbat, poklik, jamiyatdagi mas'uliyat kabi sifatlarni shakllantiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Abdurahmon Jomiy. Nafahot ul-uns. – Tehron. 1983.
2. Abdurahmon Jomiy. Silsila az-zahab. – Tehron. 1983.
3. Hamidov N. Jomiy va tasavvuf falsafasi. – Toshkent. 2005.
4. Shimmel A. Islomdagi irfoniy an'analar. – Lubnon. 1982. – 543 b.
5. Zohidov H. Sharq falsafasida inson masalasi. – Toshkent. 2011.